Ushbu nazariya tijorat banklarining likvidligini boshqarishda davlat qimmatli qog'ozlariga alohida e'tibor berilgan. Albatta, davlat qimmatli qog'ozlar yuqorilikvid aktiv hisoblanadi. Lekin, iqtisodiyotdagi keskin ahvol ushbu nazariyaning to'g'riligiga shubxa tug'diradi. Bunga misol qilib, 1929-33 yillarda AQSHda yuzaga kelgan moliyaviy inqiroz natijasida ko'plab tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan «onkol» kreditlari likvidligiga ishongan bo'lishsada, lekin qimmatli qog'ozlarning bozor narxi keskin tushib ketishi natijasida berilgan kreditlarni qaytarib olish tijorat banklariga zarar keltirgan hamda ular likvidlik muammosidan qutulmadilar. AQSHda 1933 yilgacha banklar sanoat kompaniyalarining qimmatli qog'ozlariga katta miqdordagi investitsiyalarni amalga oshirgan, shuningdek, vositachilik xizmatlarini ko'rsatishgan, xususan ularning qimmatli qog'ozlarini kafolatli joylashtirgan. 1929-1933 yillardagi tanglik boshlanishi bilan kompaniyalarning aksariyat ko'pchiligi bankrotlikka uchragan, bu esa, o'z navbatida, banklarning katta yo'qotishlariga olib keldi. «Zanjir bo'yicha» banklarning omonatchilari jabr ko'rdi. O'z omonatlarini banklarga ishonib topshirgan millionlab fuqorolar xonavayron yoki bankrot bo'lishdi. Ayni shu sababli, 1933 yili AQSHda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari bozorida vositachilik xizmati ko'rsatishni taqiqlovchi Glass-Steagall qonuni qabul qilindi. XX asrning 80 yillari o'rtasidan boshlab, Amerikadagi tijorat banklariga yana ikkilamchi bozorda aksiyalar bilan ayrim operatsiyalarni, shuningdek, dilerlik xususiyatidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsat berildi. 1998 yil avgustdagi Rossiyada davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bo'yicha defoltni e'lon qilinishi juda ko'plab banklarning «sinishi»ga olib keldi. 2008 yilda yuzaga chiqqan jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqiroziga o'zdiqqat – e'tiborini qaratgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov: “Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jaxon moliya – bank tizimida jiddiy nuqsonlarni mavjudligiga ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ishyuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga

berilibketgan banklar faoliyati ustidan

etarli darajada

nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.²⁴ deb aloxida ta'kidlab o'tganlar.

3. «Kutilayotgan daromadlar nazariyasi». Ushbu nazariya asoschilari bank likvidligini boshqarish jarayonida olingan kreditlar asosida mijozlar tomonidan kutilayotgan daromad darajasiga ham miqdor nuqtai – nazaridan hamda vaqt nuqtai – nazaridan mos kelishi va o'zaro bog'lanishining amalga tadbiiq qilishdi. Xuddi shu asosda tijorat banklari uchun kelajakda kutilayotgan likvidlik muammosini oldini olishga imkoniyat yaratadi, deb hisoblaydilar.

Ushbu nazariyaning tarafdorlari fikricha tijorat banklarining likvidligini berilgan kreditlarni qaytarishda to'lovlar grafigiga, kelajakda qarz olgan mijozning biznes rejasiga asosan oladigan daromadini qo'ygan holda rejalashtirsa bo'ladi. Ushbu nazariyaning mohiyatini qisqacha izohlasak, unda tijorat banki kredit olgan mijozning biznes rejasiga asosan monitoring olib borish natijasida kelajakdagi bank likvidligini ta'minlashlari imkoniyati mavjud bo'ladi.

Kutilayotgan daromad nazariyasi ko'pchilik tijorat banklari tomonidan o'z investitsiya portfelini shakllantrishning zaminiga pog'onali samarani qo'yilishiga imkoniyat beradi. Unda qimmatli qog'ozlarning so'ndirilish muddatlari bo'yicha tushumlarning muntazam ravishda kelib tushishi va ularni oldindan bila olish imkonini hisobga olgan holda tanlab olinadi. Bunday holatda qimmatli qog'ozlarning investitsiya portfeli naqd puldagi to'lovlarning muntazamlilik ko'rsatkichi bo'yicha qarz va ular bo'yicha foizlarning muntazam so'ndirilishiga ega bo'lgan kredit portfeliga yaqinlashadi.

Investitsiyalash jarayonida bank strategiyasining ikki turi farqlanadi: passiv va aktiv. Passiv, kutib turuvchi strategiyaning maqsadi – o'rtacha bozornikiga yaqin bo'lgan darajadagi barqaror va qat'iy daromad olinishini ta'minlashdir. Bu holda, odatda, «narvon» usuli yoki «shtanga» usuli qo'llanadi. Birinchi usul turli muddatli qimmatli qog'ozlarni bank tomonidan tanlab olingan investitsiyalash muddati doirasida bir tekis taqsimlangan holda sotib olishga

²⁴Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"-T.: "O'zbekiston" 2009. 5b.

asoslangan. «Shtanga» usuli investitsiyalarning aksariyat qismi portfelning yuqori likvidligini ta'minlaydigan juda qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarga hamda yuqori daromad olish uchun imkon beradigan anchagina uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilishini anglatadi.

O'zbekistonda banklar o'zlarining qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishda ushbu ikkala usulni qo'llaydilar. Biroq O'zbekiston uchun umuman investitsiyalashning nisbatan qisqaroq muddatlari xosdir.

Tijorat banklarining likvidlilik nazariyasi qatoriga passivlarni boshqarish nazariyasi ham kiradi. Ushbu nazariya 1960 – 70 yilda paydo bo'lib, uning asoschilari tijorat banklari likvidlik muammosini echish borasida o'z passivlariga, ya'ni majburiyatlariga e'tibor qaratishgan. Ushbu nazariyaning paydo bo'lishiga iqtisodiyotda ikki bo'g'inli bank tizimi va qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi hamda ularning faoliyatlarini rivojlanishi ta'sir etdi. Ushbu nazariyaga asosan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida qo'shimcha pul – mablag'larini jalb etish orqali likvidlilik muammolarini hal etishlari mumkinligini ta'kidlaydilar. Bunday siyosat foyda olish va likvidlikni oshirish maqsadida federal jamg'armalarning depozit sertifikatlari va boshqa tijorat qimmatli qog'ozlarini sotib olish orqali amalga oshiriladi. Bunday holatda ular ichki jamg'arilgan mablag'lar hisobiga emas, balki tashqi mablag'lar hisobiga bo'ladi. Tijorat banklari fondlarni sotib olib ularni foiz stavkalari o'rtasidagi foydali farqdan kelib chiqqan holda joylashtiradilar va shu sababli spreadni boshqarish an'anaviy bank amaliyotiga aylandi. Dastlab ushbu nazariya ximoyasiga etakchi moliyaviy markazlarning yirik tijorat banklari aktiv ravishda chiqqan va keyinchalik esa undan boshqa banklar ham foydalana boshlagan.

Tijorat banklarini boshqarish siyosatini rivojlantiruvchi va unga qo'shimchalar qiluvchi passivlarni boshqarish nazariyasi quyidagi ikki isbotga asoslanadi:

- tijorat banklari qo'shimcha pul mablag'larini kapitallar bozorida sotib olgan holda jalb etish yo'li orqali likvidlik muammosini hal etishi imkoniyatiga

ega bo'ladilar. Bu bo'yicha rivojlangan mamlakatlardagi amaliyot o'z isbotini topgan;

- tijorat banklari o'z likvidligini mamlakat Markaziy banki yoki boshqa tijorat banklaridan pul mablag'larini keng ko'lamda qarzga olish orqali ta'minlashlari mumkin.

Zamonaviy sharoitda ko'pgina rivojlangan mamlakatlar bank tizimida tijorat banklari qarz mablag'larini jalb etishdan keng foydalanadilar. Ushbu mablag'lar hisobiga bank aktivlarining 80 foizidan ortig'i shakllanadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz milliy bank tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari amaliyotida ushbu nazariyadan ham keng ko'lamda foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning sababi resurslar etishmovchiligi holatida tijorat banklari banklararo resurslar bozorida qo'shimcha mablag'lar jalb qilish orqali hamda ortiqcha bo'lgan holatda esa, ularni samarali joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni olib borish yo'li bilan daromad olishga xarakat qiladi, lekin, bu faoliyatni olib borish jarayonida tasdiqlangan qonunchilik me'yorlariga amal qilishlari lozim. Tijorat banklari o'zlari uchun o'rnatilgan likvidlik darajasini saqlab turishlari uchun hamda olib borilayotgan aktiv operatsiyalarning turlari bo'yicha yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan qaltisliklarni oqilona taqsimlashlari shart. Amaldagi qonunchilikka asosan tijorat banklari o'zlarining aktivlarining ma'lum qismini daromad keltirmaydigan hamda juda kam miqdorda daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltiradi. Masalan, umuman daromad keltirmaydigan aktivlarga tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisob raqamida saqlanadigan majburiy zahiralar, asosiy vositalarni, jixozlar va buyumlarni, hamda juda kam miqdorda daromad keltiruvchi aktivga esa kassadagi naqd pulni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Bundan tashqari tijorat banklarining ko'chmas mulkdagi aktivi nafaqat daromad keltirmaydi, balki, mol – mulk solig'ini to'lashi bilan zarar keltiradi.

Iqtisodchi olimlar o'rtasida tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini oldiga qo'yilgan vazifalariga asosan quyidagi ikki guruhga ajratadilar:

- tijorat banklarining likvidligini saqlab turish maqsadidagi aktiv operatsiyalar;

- tijorat banklarining ma'lum daromad olish maqsadidaga aktiv operatsiyalar.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bu ikkala maqsaddagi aktiv operatsiyalar o'rtasidagi bank likvidligini ta'minlash hamda daromad olish o'rtasida bevosita bog'liqlik, hamda bizning fikrimizcha, o'zaro o'ziga xos ziddiyatlar mavjud.


Tijorat banklarining likvidligini saqlash maqsadidagi qo'yilmalarga banklarning kassalardagi pul mablag'lari, Markaziy bankdagi majburiy zahiralari, tez sotiladigan hamda yuqorilikvid qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar, boshqa tijorat banklaridagi depozitlarning summalari kiradi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan qo'yilmalar tijorat banklariga ma'lum miqdorda daromad keltirsada, ularning asosiy maqsadi bankning umumiy likvidlik darajasini saqlab turishdan iboratdir, ulardan keladigan daromad banklar uchun ikkinchi darajadagi ahamiyatga egadir.

Tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda har bir mamlakatdagi Markaziy bankning pul – kredit siyosatini amalga oshirishda majburiy zahira siyosati tegishli samara berishi lozim. Ushbu siyosatda masalaning ikki tomonini ko'rsatib o'tish lozim. Birinchidan, Markaziy bankning majburiy zahira stavkalarini oshirishi tijorat banklarining likvidlik darajasini ko'taradi. Ikkinchidan, tijorat banklarining o'z mijozlaridan ma'lum miqdorda xarajatlar hisobiga shakllantirilgan mablag'larini xarakatsiz turib qoladi. Buning natijasida ularning muddatli va jamg'arma depozitlarini oshirish bo'yicha olib boradigan faoliyatiga salbi ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda Markaziy banklar majburiy zahira siyosatidan foydalanmaydilar. Masalan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gongkong, Kolumbiya, Litva, Chexiya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda Markaziy bankning majburiy siyosati qo'llanilmaydi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda Markaziy banklar tomonidan qo'llanilayotgan majburiy zahira stavkalari mavjud, lekin, ularning foizlari yuqori

darajada emas. Iqtisodiy adabiyotda bank tizimi likvidligi degan atama mavjud. Ushbu tizimning mohiyati mamlakatdagi butun bank tizimini ta'minlashda, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun iqtisodiy sharoitlarni ta'minlash va omonatchilar hamda kreditorlarni manfaatlarni himoya qilish maqsadida Markaziy bank markazlashgan tartibda barcha tijorat banklari uchun turli likvidlik me'yorlarini saqlash uchun faoliyat normativlarini o'rnatadi va nazoratni olib boradi. Halqaro amaliyotda, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Belgiya, AQSH, Niderlandiya, Fransiya, Yaponiya va boshqa davlatlarda tijorat banklari likvidligi uchun turli normativlar o'rnatilgan. Ushbu normativlarning turlari va ular bo'yicha koeffitsientlar mamlakatdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar milliy pul birligining barqarorligi, iqtisodiyotning real holati, inflyatsiya darajasi va davlat byudjeti taqchilligini hisobga olingan holda o'rnatiladi. Shuning uchun har bir alohida olingan mamlakatda tijorat banklari likvidligi uchun normativlar bir-biridan farq qiladi.

3.2 O'zbekiston tijorat banklari aktivlarini va xizmatlarini diversifikatsiya qilishning takomillashtirish yo'llari

Bank aktivlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarini diversifikatsiya qilishning zarurligi haqida gapiradigan bo'lsak, har doim xam bank aktivlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarni sifat ko'rsatkichlaridan kelib chiqib ularni yuz foizli to'g'ri baholashning iloji yo'q chunki ularning tarkibiy va sifat jihatdan o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar soni juda ko'p. Shunday hollardaaktivlarni tarkibiy tuzilishini doimiy optimallashtirish bunday muammolarni kelib chiqishini oldini oladi, chunki, aktivlar tarkibini xar xillashtirish natijasida ular bilan bo'g'liq risklar ham taqsimlanadi. Shuning uchun, diversifikatsiyaaktivlar vako'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini optimallashtirish uchun eng keng tarqalgan yo'llardan biri bo'lib xizmat qiladi. Aktivlar tarkibini diversifikatsiyasi ularni tarkibiy jihatdan turli sohalar va yo'nalishlarga bo'lishni nazarda tutadi bu esao'z navbatida ular bilan bog'liq risklarni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Diversifikatsiyao'zi quyidagi to'rta element bo'yichaamlagaoshirilishi mumkin.



9-rasm. Bank aktivlari va passivlari diversifikatsiyasi²⁵

Aktivlarni tarkibiy elementlari bo'yicha diversifikatsiya qilish. Aktivlarni har bir tarkibiy elementni ya'na tarkibiy elementlarga ajratgan holda diversifikatsiya qilish mumkin. Masalan, qimmatli qog'ozlar, ularni qarz munosabatni va ulush munosabatini ifodalaydigan qimmatli qog'ozlar sifatida o'zaro taqsimlash; bazisli qimmatli qog'ozlar va derivativlarga ajratib ularni o'zaro muttanosib ulushini aniqlash; qimmatli qog'ozni emissiya qiluvchisiga ko'ra davlat, mahalliy va korxonalar; qimmatli qog'ozlar bozoriga ko'ra ichki va tashqi bozorlarga ajratib diversifikatsiya qilish mumkin.

Tarmoqlari va sohalari bo'ylab diversifikatsiya qilish. Bunda bank o'zini xizmatlarini yoki aktivlarini tarmoqlar va sohalar bo'ylab joylashtiradi va bu orqali ular bilan bo'g'liq risklarni taqsimlab ulardan kutilayotgan samarani ortishiga erishishi mumkin. Buni banklarning investitsiya yoki kredit operatsiyalari bo'yicha olib ko'radigan bo'lsak, bank o'z investitsiya portfelini shakllantirganda uni har xil sohalariga qilingan investitsiyalarga ajratilganligiga e'tibor berish kerak. Agar bank investitsiyalarini katta qismini bir sohaga kiritgan bo'lsa, bu bankni investitsiya portfelini risklilik darajasini ortishiga olib keladi. Agar investitsiyalarni katta qismi kiritilgan sohada qandaydir iqtisodiy muammolar vujudga kelsa bu o'z

²⁵ Acharya, V.V., Hasan, I., Saunders, A., 2006. Should banks be diversified? Evidence from individual bank loan portfolios. *Journal of Business* 79, 1355-1412.

navbatida bank investitsiya portfelini holatini yomonlashishiga sabba bo'ladi. Shu sababli banklarda aktivlarni shakllantirayotganda albatta ularning tarmoqlar va sohalar bo'yicha joylashtirilishiga e'tibor qaratish lozim.

Moliya institutlari va Fond oilalar bo'ylab diversifikatsiya qilish. Bizga ma'lum juda ko'plab moliyaviy institutlar va kompaniyalar mavjud, brokerlik kompaniyalari, turli xildagi fondlar, banklar va shuningdek sug'urta kompaniyalari, ularning barchasi moliyaviy va investitsiya xizmatlarni taklif qiluvchilar hisoblanadi lekin ularning hech qaysi biri yuz foizli ishonchli emas albatta ular bilan bog'liq risklar mavjud. Shunday naqd va naqdsiz pullarni joylashtirishda ularning hech qaysi biri mukammal ishonchli hisoblanmaydi, shunday hollarda eng qulay yo'l ularni turli xil moliya institutlari va fondlarga bo'lib joylashtirgan maqul, bu esao'z navbatida xavf- xatarni taqsimlaydi. Yuqoridagi moliya institutlardan hammasi bir vaqtning o'zida moliyaviy muammolarga duch kelishi matematik ehtimollik jihatidan ham past hisoblanadi. Bu esa asosiy sizning mablag'laringiz bilan bog'liq muammolarni vujudga kelishini oldini oladi.

Likvidlik darajasi bo'ylab diversifikatsiya. Aktivlarni taqsimlaganda yoki ularni tarkibini shakllantirayotganda ularning likvidlik darajasiga ko'ra ham muttanosib shakllanishiga e'tibor qaratmoq lozim. Bu o'z navbatida bankning likvidligini saqlab turish va mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida, tezkor amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bu bilan bank mijozlar sonini kengaytirishga va xizmatidan foydalanuvchilar sonini oshishi bilan yuqori daromadga erishishi kutiladi.

Iqtisodiy hududlarga ko'ra diversifikatsiya qilish. Bunda aktivlarni iqtisodiy hududlarni o'rganish, ularning ichki imkoniyatlarini baholash va u hududlarning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda joylashtirilishini nazarda tutuladi. Aktivlar faqatgina bitta hudud miqyosida emas balki bir nechta hududlarga joylashtirilishi nazarda tutiladi. To'g'ri bu ma'lum bir ma'noda daromadni cheklashi mumkin lekin riskni taqsimlashga, va kutilayotgan daromadni barqarorligiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bank aktivlarini tarkibiy jihatdan o'rganib tahlil qilish natijasida ularni diversifikatsiya qilish natijasida ular bilan bog'liq risklarni taqsimlash orqali risklarni yetmish foizgacha qisqartirish mumkin. Bu eas albatta bankning aktivlarini qay darajada diversifikatsiya qilganligiga bog'liqdir.

Aktivlar tarkibini o'rganib chiqqanimizda, aktivlarning tarkibinig yuqori ulushi kredit operatsiyalari zimmasiga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda kredit portfeli diversifikatsiyasigaalohida e'tibor qaratmoq lozim chunki bank daromadlarining katta qismi shu operatsiya hisobidan shakllanishi bilan bir qatorda, bu operatsiya bilan bog'liq risklar ham yuqori hisoblanadi.

Shundankelibchiqqanxoldabankningkreditportfeliningdiversifikatsiyasibankningba'zimijozlardanko'rganzararlariniboshqamijozlardanko'rgandaromadhisobidankopl pshimkoniyatiniberadi.

Diversifikatsiyaniuchxilyo'nalishbo'yichaolibborishmumkin.

1. Portfel.
2. Geografik
3. Kreditlarnito'lashmuddatigaqarabo'tkaziladigandiversifikatsiyaturlaridir.

Banklarningkreditportfelinidiversifikatsiyaqilishbankningkreditlariniharxilsoladagibirmechamijozlaro'rtasidagitaqsimlashnio'zichigaoladi.

Diversifikatsiyaqilinmagankreditportfelidoimoyuqoririskbog'liqbo'ladi.

Bankningkreditportfelinidiversifikatsiyaqilishyo'libilankreditportfeliniboshqarishbankningstrategikrejalashtirishjarayonibilanuzluksizbog'liqdir.

Diversifikatsiyaningxususiyatlarishundakim:

-birinchidan-

diversifikatsiyahammavaqtriskniyoqtirmaydiganbanklaruchunqulaykeladi, chunkiurisknikamaytiradi;

ikkinchidankreditbo'yichafoydaharakatiqanchakammoskelsa, risknikamaytirishhisobigadiversifikatsiyadanshunchako'pna'fko'rishmumkin.

Diversifikatsiyalanganportfelburiskjixatdanbir-birigabog'liqbo'limagankichikkreditlartuplaminio'zidamujassamlashtiradi.

Kreditportfeliyigirmadanortiqkreditdantashkiltopganbo'lsa, bundayportfelyaxshidiversifikatsiyaqilinganportfeldeyiladi. Diversifikatsiyatalabdarajasidabo'lishiuchunquyidagishartlarbajarilishikerak.

-portfelko'psonlinisbatanmaydakreditlardantashkiltopishi.

-kreditlarriskjixatidanbirbirigabog'liqemas,

ya'nibironbirkreditbo'yichato'layolmaslikextimoliboshqakreditbo'yichato'layolmaslikextimolibilanbog'liqbo'lmasligikerak.

Diversifikatsiyayordamidakreditportfeliningumumiyriskdarajasinikamaytirishgaerishishmumkin.

Ba'zidaalohidaolingankreditbo'yicharisko'zgarmaganholdahaqiqiyolinadigand aromadkutilayotgandaromadgatenglashishimumkin.

Banklaruchunkreditportfelinidiversifikatsiyalashoson, kreditnikamsummadaturlisohalargaturlimintakalargaajratishgaerishishlozim.

Kreditlarnita'minlanganligibo'yichadiversifikatsiyaqilishdata'minlashasosqilibolinganob'ektninglikvidlikdarajasigae'tiborberishzarur.

Kreditta'minlanganligilikvidlilikdarajasiqanchayuqoribo'lsa, kreditvaubo'yichafoizninghamo'zvaqtidaqaytishiosonvatezbo'ladi.

Bankningkreditsiyosatinivakreditportfelinitahlilqilishningasosiy maqsadi-ssudabo'yichaasosiyqarzvaubo'yichafoizlarnio'zvaqtidato'lashgaerishishdaniborat.

Albattabarchakreditlarbo'yichama'lumbirsababbilanto'layolmasliksharoitiyuzagakelishimumkin.

Agarbankkreditnifaqatjudaishonchlimijozgaberadiganbo'lsa, uningyuqorifoydaolishiimkoniyatiquqsarishimumkin.

Shubilanbirgaagarkreditnito'lashbo'yichamuammolaryuzagakelsa, bubankkajudaqimmatgatushushimumkin.

SHuninguchunbankningkreditsiyosatiehtiyotkorlikbilanbankresurslarinioqilonajoylashtirishiasosidayuqorifoydaolisho'rtasidagibalansnita'minlashgaqaratilganbo'lishikerak

Tijoratbanklar kredit portfelini diversifikatsiyalash usulidan foydalanishda bank kreditlarini turli sohalardagi kompaniyalarga,

kichik miqdordagi s qamuddatlariga va ko'proq mijozlarga berishni afzal ko'rish lozim

Yana kreditlarni diversifikatsiya qilishda berilgan kreditlarning ta'minlanganligini hisobga olish yo'libilgan kreditlar bo'yicha risklarni kamaytirib, bankdan foydalanishga erishish mumkin.

Kreditlarni diversifikatsiya qilishda kreditlarni kammiqdordagi ko'proq mijozlarga berishga alohida e'tibor qilinishi lozim.

Banklar bergan kreditlar bo'yicha ularning ta'minlanganligiga qarab diversifikatsiya qilish usulini qo'llash kredit risklarining kamayishiga va bank foydasining oshishiga alohida e'tibor berish mumkin.

Kreditlarni ta'minlanganligi bo'yicha diversifikatsiya qilish quyidagi belgilar bo'yicha o'tkaziladi:

- Kreditning tovar moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligi.

- qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'libilgan ta'minlanganligi.

- Bank garantiyasi bilan ta'minlanganligi darajasi.

- Boshqa huquqiy shaxslarning kafolati sifatida ta'minlanganligi va boshqalar.

Tijorat banklar kredit berishda 2 xil foiz stavkasini bank kreditlar beradi. Birinchisi o'z garmas foiz stavkasi, ikkinchisi esa o'zib yuruvchi foiz stavkalarini. Foiz stavkalarini urnatishda bank kichik va tashqi bozor dayuzaga kelgan turli foiz stavkalaridan mamlakatdagi inflyatsiya darajasi va bankning daromadligiga qarab tayyorlanadi. Kredit berayotgan bank kredit bo'yicha foizlar qanday to'lanilishini inobatga olish kerak, o'z mablag'larini hisobidan miyokib boshqamanbalardan miyobuholda diversifikatsiya yanabirturifoz to'lash manbalarini bo'yicha diversifikatsiyalash maydonga chiqadi.

Diversifikatsiya yanakreditni qaytarish yo'kit o'lash muddatini bo'yicha; oylik; kvartallik; ma'lum vaqtdan so'ng; odatda investitsion kreditlar bo'yicha; oldindan,

diskontirlangan kreditlash usulibo'yicha,
kredit berish muddatiga qarab diversifikatsiyalashni qo'llash mumkin.

Kredit portfelini muddati
bo'yicha diversifikatsiyalash ham ahamiyatga ega,
chunki turli muddatli sudalar bo'yicha foiz stavkalar turli o'lchovdagitebranishlarta'sir
iostidabo'ladi va qarzoluvchining bilvosita zimmasigatushuvchirisklar ham sudalarni
ng muddatiga bog'liq.

Diversifikatsiyaning keyingi turi - bu geografik diversifikatsiyalash bo'lib,
unda geografik mintakaninazarda tutadi.

Diversifikatsiyaningushbuturiyirik banklarga xosdir. O'zbekiston Respublikasida
ushbu usul qarzoluvchining kelibchiqish joyiga qarab qo'llaniladi,
ya'ni bank kredit portfelini O'zbekiston Respublikasirezidentlariga va nonrezidentlariga
berilgan kreditlarga bo'ladi.

Bank kreditlashning geografik limitlarini o'rnatish ijobiy samara berishi mumkin.

Mulkchilik shakllariga ko'ra bankning kredit portfelini davlat korxonalariga,
nodavlat korxonalariga xorijiy kapitalga qarab berilgan kreditlarga ajratiladi.
Diversifikatsiyaning barcha usullar kredit riskidan ximoyalani shusulibo'lib xizmat qila
di. Bank tomonidan berilgan kreditning samaradorligi, uning o'zvaqtida va to'liq
bankga qaytib kelishi tijorat bankining kredit portfelini sifatiga,
uning diversifikatsiyalanganligiga bog'liq. Kredit diversifikatsiya banklarda
kreditlashni tartibga solish, barcha bitimlarning samaradorligini ta'siri sifatida,
muhim ahamiyat kasb etadi. Kreditlar diversifikatsiya aniq nazoratning asosiy usuli
hisoblanadi. Bu usul mijozlarning turli toifalariga kreditlarini berishni ko'zda
tutadi: turli sohalardagi faoliyat muassasalariga va kompaniyalariga ,
shuningdek, jismoniy shaxslarga. Kreditlarni diversifikatsiyasi kreditlar bilan
bog'liq risklarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin, chunki xar xillashtirilgan
kredit portfeli xar doim ma'lum bir kreditdan keladigan zararni boshqasini
hisobidan qoplashni imkonini beradi. Shunday qilib, diversifikatsiya odatda
risklarni minimallashtirish sifatida qaraladi. Kreditni diversifikatsiyalash
natijasida kredit muassasalari kredit xavfi va ularning majburiyatlarini bajarish

uchun boshqa daromadlar tomonidan qoplash imkonini beradi, bir qarz oluvchi qarz to'lovini kechikishi bilan bog'liq mumkin yo'qotishlarni kamaytirish imkonini beradi. Kredit portfeli diversifikatsiyalanishi natijasida kreditlarni iloji boricha turli sohalarga kichik miqdorda ko'p sonli foydalanuvchilarga berish maqsadga muvofiq hisonlanadi. Chunki ushancha miqdordagi kredit kam sonli mijozlarga yirik miqdorda berilishi bitta mijozning moliyaviy ahvolining yomonlashuvi, u bilan bogliq kreditning qaytmaslik xavfini oshishigaolib keladi. Shu sababli banklar o'zlarini kredit portfellarini shakllantirayotganlarida kredit portfellarini diversifikatsiyasi darajasiga e'tibor qaratsalar bu ularning kredit bilan bog'liq xavf xatarlarini sezilarli darajada pasaytirishga yordam beradi,

Banklar tomonidan kreditlarni diversifikatsiyalshda ishlatiladigan asosiy usullar:

1. Kreditlarni normallashtirish. Bu usul beriladigan kredit miqdori ustidan qattiq yoki egiluvchan limitlar, kreditlash muddatlari, foiz stavkalar va kreditlashni boshqa shartlari bo'yichaajratishni o'z ichigaoladi.
2. Kredit oluvchilarni diversifikatsiyasi. Bir xil guruh ichida yoki yaqindan bog'liq qarz oluvchilar uchun belgilangan kreditlar chegaralar ham individual kredit oluvchilar yoki qarz oluvchilarning guruhlari uchun ularning moliyaviy vaziyat qarab o'rnatilgan bo'lishi mumkin. (Misol uchun, Iste'mol krediti, korxonalar faoliyatini muayyan sohasiga qarab , va hokazo) Bunday bir xil sohada ishlayotgan tashkilotlarga kreditlar taqdim etish - juda xavfli hisoblanadi.
3. Qabul qilingan kredit ta'minotiga ko'ra diversifikatsiya . kreditlar uchun garov ularni qaytish ehtimolini oshiradi. Barcha kreditlar ta'minlangan, yetarlicha ta'minlanmagan va taminlanmagan kreditlarga bo'linadi. Oxirgi ikki guruhning miqdoran oshishi banklar tomonidan berilgan kreditlarnini qaytmaslik xavfini sezilarli darajadaoshiradi.
4. Kreditlar bo'yicha har xil turdagi foiz stavkalarini hisoblash usullaridan foydalanish. Misol uchun qayta moliyalashtirish stavkasida imtiyozli kreditlar taqdim etish, shunindek qisqa muddatli kreditlar uchun o'rtacha foiz stavkada kreditlar taqdim qilinishi, uzoq muddatli kreditlar uchun esao'rtachadan yuqori

stavkada kreditlarni taqdim etish va ularni jami kredit portfelidao'zaro muttanosibligin ta'minlash.

5. Kredit muddatiga ko'ra diversifikatsiya. Kreditlar muddatiga ko'ra diversifikatsiya qilinganda uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarga banklarning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mutanosib ravishda shakllantirishlari kerak. Chunki kredit uchun jalb qilingan mablag'ning foydalanish muddatidan kelib chiqqan holda kredit berilgnada bu resurdan samarali foydalanilgan hisoblanadi. Agar ushbu holatlar bank tomonidan e'tiborgaolinmasa mijozlar oldida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Jahonning eng barqaror banklari tajribasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan zamonaviy uslubiyotlar asosida mamlakatimizdagi barcha tijorat banklarida banklar mijozlarining kreditga layoqatliligini skoring-tahlil qilish tadbirlarini davom ettirish. Tijorat banklarida kredit resurslarini investitsiya maqsadlariga samarali taqsimlash, kredit tavakkalchiliklari darajasini kamaytirish va istiqbolli investitsiya loyihalarini tanlash bo'yicha ishlar sifatini oshirishga doir chora – tadbirlarni amalga oshirish;

XULOSA

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalaridan asosiy maqsad daromad olishdir. Ular aktiv operatsiyalarni olib borishda amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yo'riqnomalarida ko'zda tutilgan normativlarga qat'iy amal qilishlari, bank likvidligi darajasini etarli darajada saqlab turishlari va aktiv operatsiyalarining turlari bo'yicha qaltisliklarni oqilona taqsimlashlari lozim bo'ladi. Amalda o'rnatilgan tartib - qoidalar tijorat banklarini aktivlarining ba'zilarini daromad keltirmaydigan hamda kam daromad keltiradigan moddalariga yo'naltirishlarini talab etadi. Bunday aktivlarga asosiy vositalar, kassadagi naqd pullar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi majburiy zahiralarni va boshqa aktivlarni keltirishimiz mumkin. Biz ta'kidlab o'tgan aktivlar, shu jumladan davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar tijorat bankining likvidligini ta'minlab turadigan qo'ylmalar hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, tijorat bankining daromadlilik va uning likvidlilik qarama - qarshi munosabatdadir. Likvidlilikni oshirish bo'yicha qo'ylmalarni ko'payishi daromadlilikni oshirishga yo'naltirilgan qo'ylmalarni pasaytiradi.

Risklarni hisobgaolgan holda bank aktivlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarini optimal diversifikatsiya qilish yo'llari mavzusida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosaviy fikr va tavsiyalarni bildirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

- tijorat banklarining moliyaviy resurslarini muddatlari bo'yicha diversifikatsiya qilish orqali boshqarishni chuqurroq takomillashtirish, ya'ni tijorat banklari o'zlarining moliyaviy resurslarini boshqarish jarayonida, ularni daromad keltiruvchi aktivlarga, jalb qilingan muddatlarni e'tiborgaolgan holda joylashtirilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki resurslarni boshqarishda ushbu omilga e'tibor qaratilishi bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishiga imkoniyat yaratadi.

- Bank resurslarini aktivlarga joylashtirish imkoniyatiga qarab jalb qilish zarur chunki ayrim banklar resurslarni ko'p miqdorda va yuqori foiz stavkada jalb qilish natijasida ularni aktivlarga joylashtirishga ulgurmaydilar. Buning natijasidabank zarar ko'rish ehtimolidan holi bo'lmaydi. Shuning uchun tijorat banklarining daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida markaziy bank tomonidan majburiy zaxira talablarining kamaytirilishi banklarning o'zlarida ko'proq resurs qolishiga sharoit yaratiladi va daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirish imkoniyatini beradi.

- Diversifikatsiya yordamida kredit portfelining umumiy risk darajasini kamaytirishga erishish mumkin. Ba'zida alohida olingan kredit bo'yicha risk o'zgarmagan holda haqiqiy olinadigan daromad kutilayotgan daromadga tenglashishi mumkin. Shuni alohida keltirish mumkinki bank aktivlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali ular bilan bog'liq risklar taqsimlanadi va mana shu taqsimlanish natijasida xatarlarni kamayishi aktiv operatsiyalardan kutilayotgan daromadni maksimallashtirish uchun xizmat qiladi. Shuni hisobga olgan holda hozirda tijorat banklarimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri aktivlarni risklilik darajasi ular bo'yicha tavakkalchiliklarni hisobga olgan holda ulardan kutilayotgan daromadlarni maksimallashtirishga qaratilgan optimal diversifikatsiya qilish yo'llarini ishlab chiqish hisoblanadi. Optimal shakllantirilgan aktivlar tarkibigina banklarning o'zlari ko'zlagan maqsadlari sari og'ishmay yetib borishlariga xizmat qiladi.

- diversifikatsiyalash darajasini aniqlashda, depozitlarni geometrik va tarmoq belgilari bo'yicha taqsimlanish mezonlari, ularning miqdorlari va turlarini jalb etish muddatlari hamda tijorat banklari kredit portfellarini tahlil qilish vaqtida likvidlik tavakkalchiligini asosiy manbasidir. Shuning uchun tijorat banklari likvidligi va daromadlilikining eng maqbul yoki mos darajasini aniqlashlari zarur. Bunga erishish uchun bank aktivlarini samarali boshqarish katta ahamiyatga ega.

Bozor munosabatlarida banklar uchun aktivlarni diversifikatsiya qilish hamda ularni boshqarish asosiy va dolzarb vazifalardan hisoblanib kelmoqda. Shuning uchun tijorat banklari moliyaviy jihatdan aktivlarni boshqarishning asosiy

maqsadlari hisoblangan bank likvidligini oshirish, bank daromadini oshirish va tavakkalchiliklarini kamaytirish masalalariga e'tibor qaratish lozim.

Bitiruvmalakaviyishimizning O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining aktivlarini va ko'rsatilayotgan xizmatlarini diversifikatsiya qilishning takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni taklif etamiz:

1. jahonning eng barqaror banklari tajribasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan zamonaviy uslubiyotlar asosida barcha tijorat banklarida mijozlarining kreditga layoqatligini skoring-tahlil qilish tadbirlarini davom ettirish.

2. tijorat banklarida kredit resurslarini investitsiya maqsadlariga samarali taqsimlash, kredit tavakkalchiliklarida darajasini kamaytirish va istiqbolli investitsiya loyihalarini tanlash bo'yicha ishlarsifatini oshirishga katta e'tibor qaratish

3. tijorat banklarda investitsiya loyihalarining ekspertizasi sifatini, shu jumladan, ushbu jarayon shaffofligini oshirish, loyiha ekspertizasi jarayonida barcha potentsial omillar va risklarni inobatga olishni ta'minlash;

4. tijorat banklari tomonidan xo'jalik birlashmalariva yirik korxonalar bilan birgalikda tashkil etilayotgan investitsion loyihalarni va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha injiniring kompaniyalarini faoliyatini rivojlantirish;

5. tijorat banklarining investitsion faoliyatiga mas'ul bo'lgan tashkiliy tuzilmalar faoliyatini yanada takomillashtirish, shu jumladan ularning ishlarini tashkillashtirishni va samarasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini mustahkamlash bo'yicha zarur choralar-tadbirlar amalga oshiriladi.

6. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini tarkibini o'rgangan xolda, mijozlarni talabidan kelib chiqib yangi bank xizmatlarini taklif etish va ular tarkibini doimiy yangilab turish o'ylashimizcha bankning ham xizmatlarini diversifikatsiya darajasini balki daromadlarini ham o'sishiga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, yuqorida qaydetilgan takliflarimizni bank amaliyotiga kiritilishi respublikamizdagi tijorat banklari aktivlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarini diversifikatsiya qilishning samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010
- 1.2 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. “Adolat” 2011
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasini Markaziy banki to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 2010.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 2010.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni T.: “O'zbekiston” 2011.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi qonuni T.: “O'zbekiston” 2010.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida”gi qonuni. T.: “O'zbekiston” 2011.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.05.2016 y. PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi ” qarori.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PQ-1438-son "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi qarori.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2010 y. PQ-1317-son "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori

2.4. Tijoratbanklaridepozitlariga axoliva
xo'jaliksub'ektlaribo'shpulmablag'larinijalbetishniyanada
rag'batlantirishqo'shimcha chora-tadbirlarito'g'risida
O'zbekistonRespublikasiPrezidentining 06.04.2009 y. PQ-1090-sonQarori

2.4. Tijoratbanklarininginvestitsiyaloyixalarinimoliyalashtirishga
yo'naltiriladiganuzoqmuddatlikreditlariulushiniko'paytirishnirag'batlantirishborasi
dagiqo'shimcha chora-tadbirlarto'grisida O'zbekistonRespublikasiPrezidentining
28.07.2009 y. PQ-1166-sonliQarori

2.5. "Banktiziminiyanada rivojlantirishva bo'shpulmablag'larinibank
aylanmasiga jalbetishchora-tadbirlarito'g'risida"
O'zbekistonRespublikasiPrezidentiningQarori 07.11.2007 y. N PQ-726

2.6. "Banklarningkapitallashuviniyanada oshirishva
iqtisodiyotnimodernizatsiyalashdagiinvestitsiyajarayonlarida
ularningishtirokinifaollashtirishchora-tadbirlarito'g'risida"
O'zbekistonRespublikasiPrezidentiningQarori 12.07.2007 y. N PQ-670

2.7. "Tijoratbanklariningkapitallashishdarajasini
oshirishnirag'batlantirishchora-tadbirlarito'g'risida"
O'zbekistonRespublikasiPrezidentiningFarmoni 19.12.2006 y. N PF-3831

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

3.1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va
modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. "Xalq so'zi" 19.01.2013

3.2. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosichga
ko'taradigan yil bo'ladi. T."O'zbekiston" 2012. -36b

3.3. KarimovI.A. Barcha reja va dasturlarimizVatanimiztaraqqiyotiniyuksaltirish,
xalqimizfarovonligini oshirishga xizmatqiladi.T.: "O'zbekiston" 2011. 54b.

3.4. KarimovI.A. "Jahonmoliyaviy-iqtisodiyinqirozi,
O'zbekistonsharoitida unibartarafetishningyo'llariva choralari". T.: "O'zbekiston".
2009

4. Sohaga oidme'yoriyhujjatlar

4.1.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: 2010.

4.2. Kredit axborot milliy institutining ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda banklararo kredit byuro-siga va tijorat banklariga kredit axborotlarini taqdim etish tartibi to'g'risida Nizom. 2004 y. 21 may.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan 25.07.2015 y. 19/14-sonli "Tijorat banklarilik vidligini boshqarishga qo'yiladigan talablarni to'g'risida" gi Nizom.

4.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 2015 yil 13 iyunda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 6 iyulda 2693-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablarni to'g'risida" gi Nizom

5. Asosiy adabiyotlar

5.1 Abdullaeva SH.Z. "Bank Ishi" T.: "Moлия" 2005 й.

5.2 Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash. – Toshkent: Moliya, 2002.

5.3 Alimov I.I. va boshqalar "Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari" T.: "TDIU" 2011 y.

5.4 Анна Эрлих «Технический анализ товарных и финансовых рынков». М.: «Инфра-М» 2004. -173с.

5.5 Балабанов А.И., Боровкова Вик. Банки и банковское дело: учебник. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2009.-448с.

5.6 Банковские операции: учеб. пособ. для средн. Проф. Образования / под ред. Ю.И. Коробова. – М.: Магистр, 2007. – 446 с.

5.7 Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов ; под ред. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2007. - 384 с.

5.8 Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов; под ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2010. – 384 с.

5.9 Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазавой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008. -400с.

5.10 Банковское дело: Экспресс – курс: Учеб. пособ. / Под ред О.И. Лаврушина М.: Кнорус , 2008 -352с. Бурлак Г.Н., О.И.Кузнецова «Техника валютных операций». – М.: «ЮНИТИ» 2004.

5.11 Ермаков. С.Л. Основа организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 – 656с.

5.12 Жарковская. Е.П. Банковское дело:Учеб. - М: «ОМЕГА -Л»,2008 – 476 с.

5.13 Краливецкая Л.Н. Банковское дело: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2008. – 280 с.

5.14 Mullajonov F.M. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. T. "O'zbekiston" 2011.

5.15 Rashidov O. Y. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. T.: "Cho'lpon" 2011.

5.16 Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник под ред. акад В.К.Сенчагова, А.И.Архипова. –М.: «Проспект». 2010. 366 б

5.17 Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник под ред. акад Г.Б.Поляка. –М.: «ЮНИТА-ДАНА» 2010.

5.18 Acharya, V.V., Hasan, I., Saunders, A., 2006. Should banks be diversified? Evidence from individual bank loan portfolios. Journal of Business 79, 1355-1412.

5.19 Anderson, R.C., Reeb, D.M., 2003. Founding-family ownership, corporate diversification, and firm leverage, The Journal of Law and Economics 46, 653-684.

5.20 Baele, L., De Jonghe, O., Vennet, R.V., 2007. Does the stock market value bank diversification? Journal of Banking & Finance 31, 1999-2023.

5.21 Demsetz, R.S., Strahan, P.E., 1997. Diversification, size and risk at bank holding companies. Journal of Money, Credit and Banking 29, 300-313.

6. Qo'shimcha adabiyotlar

6.1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlariva 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2012. – 282 b

6.2 B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov.
"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatiga barpo etish ustuvor maqsadimizdir" ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv slubiy majmua. T. Iqtisodiyot. 2010. – 214 b

7. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

- 7.1 Bozor, pulva kredit.
- 7.2 Bank axborotnomasi, gazetasi .
- 7.3 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yillik hisobotlari
- 7.4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari
- 7.5 "Turonbank" ATB Termiz filiali yillik hisobotlari

8. Internet saytlari

- 8.1 www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
- 8.2 www.uba.uz - O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi
- 8.3 www.nbu.com- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki
- 8.4 www.xb.uz - O'zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat Xalq banki
- 8.5 www.asakabank.uz- "Asaka" aktsiyadorlik tijorat banki
- 8.6 www.turonbank.uz- "Turonbank" aktsiyadorlik tijorat banki
- 8.7 www.aloqabank.uz- Aktsiyadorlik tijorat "Aloqabank"

